

**“O’ZBEKISTON SANOAT-QURILISH BANKI”
AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI
“O’ZSANOATQURILISHBANK” ATB**

**“O’ZSANOATQURILISHBANK” ATB da
chiqindilar hosil bo’lishini va ularni utilizatsiya qilishni boshqarish
Tartibi**

TOSHKENT-2024 yil

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB
Yuridik departament
Metodologiya boshqarmasida
2024-yil “29”martda
598-sون bilan
“RO‘YXATGA OLINGAN”

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB
Kuzatuv kengashining
2024-yil “29”martdagi
168-sonli qarori bilan
“TASDIQLANGAN”

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATBda
chiqindilar hosil bo’lishini va ularni utilizatsiya qilishni boshqarish Tartibi**

I. Umumiy qoidalar

1. “O‘zsanoatqurilishbank» ATBda chiqindilar hosil bo’lishiini va ularni utilizatsiya qilishni boshqarish Tartibi (keyingi o’rinlarda-Tartib) “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning (keyingi o’rinlarda – Bank) chiqindilari bilan tejamkor va ekologik muomala sohasidagi faoliyatining tamoyillarini va yo’nalishlarini belgilaydigan hujjat hisoblanadi.
2. Ushbu Tartib Bankning chiqindilar hosil bo’lishini va ularni utilizatsiya qilish sohasida pozitsiyasini va siyosatini belgilash uchun mo’ljallangan hujjat hisoblanib, O’zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to’g’risida”, “Chiqindilar to’g’risida” va “Ekologik ekspertiza to’g’risida” Qonunlariga, O’zbekiston Respublikasining Uy-joy va Yer Kodekslariga, “Davlat ekologik ekspertizasi to’g’risidagi” Nizomga, Bankning ekologik va ijtimoiy risklarini boshqarish Siyosatiga va Tartibiga muvofiq ishlab chiqilgan.
3. Ushbu Tartib mijozlarni atrof muhitni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi sohasidagi milliy qonunchilik talablariga, hamda bu sohadagi eng yaxshi xalqaro amaliyot qo’llanishiga muvofiq holda xo’jalik faoliyatini yuritish yuzasidan rag’batlantirishga ko’maklashadi.
4. Tartib barcha xodimlar uchun mo’jallangan qo’llanma bo’lib, chiqindilarni tegishlicha saralash, saqlash, ular bilan muomala qilish, ularni tashish va ketkazish bo’yicha belgilangan talablarga asosan, chiqindilar bilan muomala qilishning barcha jihatlari bo’yicha ularning majburiyatlarini belgilaydi.
5. Tartib Bankning barcha bo’linmalarida va sho’ba kompaniyalarida chiqindilarning to’g’ri tasniflanishiga va oqilona utilizatsiyasiga ko’maklashadi.
6. Bank chiqindilarni boshqarishning uchta asosiy tamoyiliga tayanadi – utilizatsiya qilish, ikkilamchi foydalanish va qayta ishslash.
7. Ushbu Tartib bilan belgilangan chiqindilarni boshqarishning asosiy tamoyillarini amalga oshirish maqsadida, Bankda ushbu hujjatga oid faoliyatni belgilab beruvchi va ushbu Tartibga zid bo’lmagan ichki me’yoriy va buyruq hujjatlari ishlab chiqiladi.
8. Chiqindilar hosil bo’lishi va ularni utilizatsiya qilish sohasidagi barcha ichki me’yoriy va buyruq hujjatlar ushbu Tartib bilan mustahkamlangan maqsad va vazifalarga erishishga, hamda chiqindilarni boshqarish sohasidagi asosiy tamoyillarini amalga oshirishga qaratiladi.

9. Bankda ushbu Tartibni rivojlantirish uchun, shuningdek chiqindilar hosil bo'lishi qisqarishiga va ularni utilizatsiya qilishga ko'maklashadigan lar ham qabul qilinishi va amalga kiritilishi mumkin.

II. Nizomning maqsadlari va vazifalari

10. Bank 2015-yilda barqaror rivojlanish maqsadlari (keyitngi o'rinnlarda BRM) sohasida qabul qilingan BMT Bosh Assambleyasining "A/RES/70/1" Rezolyutsiyasiga muvofiq, iqtisodiyotning barcha sohalari va sektorlari bilan o'zaro munosabati tufayli barqaror rivojlanishga muhim hissa kiritgan. Bank o'z rivojlanish strategiyasiga va Chiqindilar hosil bo'lishini va ularni utilizatsiya qilishni boshqarish ushbu Tartibga muvofiq holda, BRM – Iste'mol va ishlab chiqarishning oqilona modellariga o'tish (BRM 12) maqsadining amalgalashiga ko'maklashadi.

11. Bank mas'ul biznes sifatida, BMT ning Global shartnomasi tamoyillarini qo'llab-quvvatlash uchun o'z strategiyasida chiqindilarni ekologik saralash va utilizatsiya qilish madaniyatini joriy qilmoqda.

12. Bankning vazifasi – iste'mol va ishlab chiqarishning chiqindilari muomalasi va ularni utilizatsiya qilish sohasida yagona siyosatni turli boshqarish darajalarida amalgalashish uchun me'yoriy-huquqiy bazani yaratishdir:

chiqindilar hosil bo'lishini kamaytirish va ularni qayta ishlash usullari bo'yicha yillik yutuqlar, ular ushbu hujjat ishlashining samarasini baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

Bankning chiqindilar hosil bo'lishini va ularni utilizatsiya qilish sohasida faoliyatining strategik yo'naliishlarini ishlab chiqish;

chiqindilar hosil bo'lishini va ularni utilizatsiya qilish sohasida qabul qilingan xalqaro tamoyillarga va standartlarga rioya qilish;

chiqindilar hosil bo'lishini va ularni utilizatsiya qilish sohasida hamda ularni neytrallash jarayoni samaradorligining o'zgarishi sur'atlari borasida hisobotni joriy qilish.

13. Bank uning barcha bo'linmalarini hududida chiqindilarning ruxsat etilmagan joylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi.

14. Bank ikkilamchi resurslarni olish maqsadida, qattiq maishiy chiqindilarning alohida yig'ilishi va utilizatsiyasiga ko'maklashadi.

15. Bankning maqsadi – chiqindilar hosil bo'lishining oldini olish choralarini, resurslardan samaraliroq foydalanish va barqaror iste'mol modellarini yaratish hisobiga chiqindilarning hajmini kamaytirish hisoblanadi.

16. Bank xodimlar va mijozlarning ekologik ongini va ma'rifatini rivojlantirishni, shu jumladan aholining chiqindilarni yig'ish sohasida madaniyati va manfaatdorligini oshirishni qo'llab-quvvatlaydi.

17. Bankning barcha binolari va inshootlarini loyihalashtirishda, rekonstruktsiya qilish va qurishda chiqindilarni yig'ish va saralash uchun alohida konteynerlarni majburiy o'rnatish ta'minlanadi.

18. Bank institutsional rivojlanishga, moliyaviy barqarorlikka hamda ikkilamchi resurslar tizimi rivojlanishi uchun mas’ul bo’lgan institutlar va kompaniyalarni samarali boshqarishga ko’maklashadi.

19. Bank chiqindilarni boshqarishning ijtimoiy tuzilmasida ishtirok etish, shu jumladan chiqindilarni alohida yig’ish maqsadiga yo’naltirilgan.

20. Bank chiqindilarni madaniy boshqarishni rivojlantirish uchun moliya, bilim, hamkorlikni va o’z yondashuvini birlashtirishda davom etadi.

21. Bankning oldida chiqindilar hosil bo’lishi va ularni utilizatsiya qilish sohasida quyidagi vazifalar qo’ylgan:

doimiy tahlil qilib borish hamda chiqindilarni samarali boshqarishni optimallashtirish bo’yicha maqsadlar va vazifalarni izchil dolzarblashtirish;

chiqindilar bilan samarali muomala qilishning innovatsion texnologiyalarni qo’llash hisobiga Bankning raqobatbardoshligini oshirish;

chiqindilardan resurslar sifatida foydalanishning afzalliklari haqidagi ma’lumot;

chiqindilarni yig’ish, saralash va qayta ishslash muammosiga kuchaytirilgan e’tibor qaratish;

chiqindilarni kompleks boshqarish natijalariga yo’naltirilgan ishonchli va mo’ljalli operatsion tartibni ishlab chiqish;

chiqindilar hosil bo’lishi va ularni utilizatsiya qilish tamoyillarini joriy qilish, ushbu sohada mijozlarni chiqindilarni yig’ish va utilizatsiya qilish tamoyillarini joriy etishga rag’batlaniruvchi maslahat xizmatlarini ko’rsatish;

bankning tashqi va ichki siyosatining chiqindilar bilan muomalaga salbiy ta’sirini minimallashtirish;

“yashil”» investitsiya kiritish hamda chiqindilarni samarali yig’ish va utilizatsiya qilish mavjud bo’lgan, ekologik vaziyat yaxshilanishiga ko’maklashuvchi loyihalarni moliyalashtirish vositalarini rivojlantirish;

chiqindilarni samarali utilizatsiya qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

chiqindi aylanishini boshqarish tizimini barqaror rivojlantirish uchun, ushbu Tartibning talablarini hisobga olgan tashkiliy jarayonlarni ishlab chiqish va ularni bankning biznes-jarayonlariga joriy etilishini ta’minlash;

bankning chiqindi aylanishini boshqarish tizimining “Chiqindilar to’g’risida” Qonuni tamoyillariga va talablariga muvofiq ishslashini amalga oshirish, uning uzluksiz yaxshilanishiga erishish;

chiqindilarni yig’ish va utilizatsiya qilish tizimini doimiy yaxshilash uchun, chiqindilarni boshqarishni rejalahtirish asosida maqsad va vazifalarni joriy etish;

moliyalashtirish ob’ektlarini muntazam monitoring qilish, ehtimoliy oqibatlarni, shu jumladan chiqindilarning samarasiz utilizatsiyasiga ta’sir etuvchi ekologik omillar bilan bog’liq bo’lgan oqibatlarning oldini olish va bartaraf etish;

bank mijozlarini va pudratchilarini Bankda chiqindi aylanishini boshqarish tizimi ishlashi haqida xabardor etish;

ushbu Tartibni o'z vaqtida qayta ko'rib chiqish, tuzatish kiritish, hamda xodimlarni va manfaatdor tomonlarni Tartib yuzasidan xabardor etish;

ushbu Tartibni axborot va resurslar jihatidan qo'llab-quvvatlashni, uni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lган miqdorda amalga oshirish;

bankning barcha darajalarida ushbu Tartib va uning maqsadlari haqida xabardorlikni oshirish, chiqindilar ortishini hosil qiluvchi resurslarni oqilona sarflashdan manfaatdorlikni oshirish, Bank xodimlarining chiqindilarni boshqarish sohasidagi bilimlari darajasini oshirish.

III. Bankning chiqindilarni boshqarish sohasida faoliyatining tamoyillari

22. Chiqindilar izolyatsiyasi va utilizatsiyasining xavfsiz usullarini aniqlash va rivojlantirishni tartibga solish uchun vositalarning keng ko'lамини qo'llash.

23. Bankning ijtimoiy va ekologik mas'uliyat, korporativ boshqaruva va barqaror rivojlanish sohasidagi siyosatining qoidalariga va tamoyillariga rioya qilish.

24. Kattalar va bolalarning atrof muhit muammolari va uni saqlashning muhimligi haqidagi xabardorligini oshirish maqsadida, ular uchun turli tadbirlarni va ta'lim dasturlarini tashkil etish.

25. Manbai yonida (ikkilamchi qayta ishslash uchun yaroqli bo'lган va bioparchalanuvchi) maishiy chiqindilarni ajratish qoidalariga, hamda munitsipal chiqindilar bilan muomala qilish sohasidagi tarif siyosatiga ("ifloslantiruvchi to'laydi" tamoyili asosida) rioya qilish.

26. Bank ekologik tashabbuslarni amalga oshirish uchun, investorlarga qarz berish imkonini bo'lган holda, chiqindilarni qayta ishslash, utilizatsiya qilish yoki joylashtirish sohasida faoliyat yurituvchi investitsiyalarni jalb qilishga ko'maklashishi lozim.

27. Bankda chiqindilar bilan muomala qilish va ikkilamchi resurslardan foydalanish tizimini takomillashtirish, hamda chiqindilarni ko'mish hajmini kamaytirish bo'yicha tadbirlarni birgalikda ishlab chiqish va amalga oshirish.

28. Resurslar hisobini yuritishni va ularni iste'mol qilish samaradorligini nazorat qilishni ta'minlash.

29. Bankning barcha xodimlarini chiqindilarni boshqarishni optimallashtirish faoliyatida ishtiroy etishga jalb qilish.

30. Barcha xodimlarni sog'liqni saqlash, xavfsizlik va yuqumli kasalliklar nazorati bo'yicha talablarga muvofiq holda chiqindilar bilan xavfsiz muomala qilish va ularni utilizatsiya qilish bo'yicha yo'rignomalar bilan ta'minlash.

31. Bank xizmatlarini ko'rsatishning sifati va ishonchliligining belgilangan darajasida, chiqindilar hosil bo'lismiga olib keladigan resurslarni iste'mol qilishni kamaytirish bo'yicha amalga oshirilishi mumkin bo'lган va iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydigan choralarini amalga oshirish.

32. "Green banking" departamenti Ma'muriy-xo'jalik departamenti bilan birgalikda, ushbu Tartibni qo'llashni muvofiqlashtirish va uni tizimli amalga oshirish uchun mas'ul bo'lган tarkibiy bo'linma hisoblanadi.

33. Chiqindilar bilan madaniy muomala qilish maqsadlariga erishish uchun, maslahat jarayonida faol ishtirok etish va manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish.

34. Manfaatdor tomonlar bilan ochiq va halol o'zaro munosabatda bo'lisch, Bank tomonidan qarorlarni qabul qilish jararyonida ularning fikrlarini va manfaatlarini hisobga olish.

35. Bank tomonidan qabul qilingan chiqindilar hosil bo'lishi va ularni utilizatsiya qilish sohasidagi qoidalarga, me'yorlarga, standartlarga va majburiyatlarga, hamda Bankning chiqindilar aylanishi sohasida faoliyatining shaffofligiga va hisobdorligiga rioya qilish.

36. Har yili chiqindilar bilan muomala qilish sohasidagi faoliyat to'g'risida hisobot tuziladi.

IV. Chiqindilar hosil bo'lismeni va ularni utilizatsiya qilish sohasida boshqarish tizimi va usullari

37. Siyosatdan foydalanishning ochiqligini ta'minlashning Bank xodimlarini va boshqa manfaatdor shaxslarni belgilangan tartibda xabardor etish, hamda Bankning ichki va tashqi axborot resurslarida bu haqda e'lon qilish orqali amalga oshiriladi.

38. Chiqindilarni monitoring qilish va ma'lumotlarni boshqarishning yuqori sifatli tizimlarini joriy etish milliy va xalqaro darajada katta sa'y-harakatlarni talab qiladi.

39. Bank nafaqat o'z ichida chiqindilarni boshqarishi, balki shu bilan o'zining yashil kuniga sodiqligini tasdiqlagan holda, turli ekologik loyihalarda ham investor bo'lishi mumkin.

40. Kasbiy gigiyena, yuqumli kasalliklar nazorati, kimyoviy xavfsizlik va chiqindilarni boshqarish sohasida o'z salohiyatini oshirish uchun, bilimlarni va malakalarni doimiy kengaytirish va chuqurlashtirish lozim.

41. Ekologik axborotni tarqatish va jamoatchilik bilan maslahatlar orqali, atrof muhitning holati uchun mas'ul bo'lish.

V. Chiqindilar hosil bo'lismeni va ularni utilizatsiya qilishni boshqarish sohasida hisobot

42. Bank, tijorat sirini va sirlarning boshqa turlarini himoya qilish to'g'risida, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risida qonunchilikning talablarini, hamda Bank tomonidan tuzilgan bitimlarga muvofiq holda, maxfiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risida talablarni hisobga olgan holda, ochiqlikka va manfaatdor tomonlarni o'zining chiqindilarni boshqarish sohasidagi faoliyati natijalari haqida xabardor etishni ta'minlashga intiladi.

43. Chiqindilar aylanishi sohasidagi hisobotning har yili chiqarilishi ushbu Tartibga muvofiq amalga oshiriladi va ommaviy nomoliyaviy hisobotni rivojlantirish kontseptsiyasi talablariga javob beradi.

44. Bank manfaatdor tomonlarni xabardor etish maqsadida, ushbu Tartibga muvofiq har yili chiqindilarni boshqarish sohasida hisobotni tayyorlaydi va chiqaradi, hamda ommaviy nomoliyaviy hisobotni rivojlantirish kontseptsiyasi talablariga javob beradi.

45. Bank monitoring qilish hamda chiqindilarni boshqarish sohasida faoliyatning turli jihatlarini va natijalarini ta’riflaydigan hisobotni tayyorlash muhimligini tushunadi. Hisobot jarayoni tasdiqlangan hisobot standartlariga muvofiq tashkil etiladi.

46. Bank barcha manfaatdor tomonlar ma'lumotlardan foydalanishi imkonini ta'minlash uchun, hisobotni Bankning rasmiy saytida e'lon qiladi.

47. Bank manfaatdor tomonlardan shikoyatlarni, e'tirozlarni va takliflarni o'z vaqtida va mas'ul ravishda ko'rib chiqish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

VI. Yakuniy qoidalar

48. Ushbu Tartib Bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan sanasidan boshlab kuchga kiradi.

49. Bank xodimlari va mijozlari ushbu Tartib bo'yicha ish yuritayotganda korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka, jumladan:

korrupsiyon harakatlarni to'liq taqiqlashi va har qanday moddiy shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita) berishi va boshqa afzalliklarni ta'minlashni to'liq rad etadi;

amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan Bankning korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ichki hujjatlari talablariga amal qiladi;

jinoyat yoki huquqbuzarlik alomatlari borligi to'g'risida aniq faktlar yoki dalillar aniqlangan taqdirda, bu haqida o'rnatilgan tartibda huquqni muhofaza qilish organlariga xabar beradi.